

AMIR TEMURNING SAMARQANDDAGI BOG‘ LARI

Jahongirov Islomxon Faxriddin o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, asosan, Amir Temur tomonidan Samarqand va uning tevarak-atrofida barpo etilgan bog‘lar to‘g‘risida ma‘lumot beriladi. Muallif quyida so‘z boradigan bog‘lar haqida o‘sha davr tarixchilarining asarlaridagi ma‘lumotlarga tayanib ayrim fikrlarini bayon etadi.

Kalit so‘zlar: Sharafuddin Ali Yazdiy, Boburnoma, Zafarnoma, Klavixo, Abu Tohirxo‘ja Samarqandiy, Bog‘ Bihisht, Bog‘i Nav, Ibn Arabshoh

Temuriylar davri yozma manbalarida qayd etilgan ma‘lumotlardan Amir Temur va uning avlodlari bog‘lar barpo etishga katta e‘tibor yaratganlari ma‘lum. Birinchi navbatda Samarqand shahri yaqin-atrofida yaratilgan bir nechta ko‘rkam bog‘larni bunga misol qilib ko‘rsatish mumkin. Amir Temur bog‘lari xususidagi dastlabki ma‘lumotlar o‘tmish tarixchilari, sayyohlari asarlarida uchraydi. Shuningdek, Amir Temur bog‘lari O‘rta asrlar rassomlari miniatyuralarida ham tasvirlangan.

Amir Temur yaratgan bog‘lari tuzilishiga ko‘ra 2 turga bo‘lingan: 1) chorbog‘lar – geometrik (to‘rtburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak) shaklda bo‘lib, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho‘zilgan. Sahnidan o‘tgan ariqlar ularni teng 4 qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland paxsa devorlarning har burchagida minora bo‘lgan. Markazda saroy joylashgan. Bunday bog‘larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan;

2) tuzilishi geometrik shaklda bo‘lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag‘rida barpo etilgan bog‘lar. Bunday bog‘lar hukmdor shikor (ov) qilishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asosiy qismi tabiiy, qo‘l tekkizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina damolish uchunsaroy, ko‘shk va chodirlar qurilgan, hovuzlar qazilib, favvoralar o‘rnatilgan.

Bu turdagi bog‘larning o‘simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo‘lgan.

Samarqandda juda ko‘plab bog‘-rog‘lar mavjud bo‘lgan. "Shahar atrofida bog‘lar va uzumzorlar shunchalik ko‘pki, u yerga yetib kelgan kishi go‘yoki o‘rtasida shahar joylashgan baland daraxtlar o‘sib yotgan bir o‘rmonga yaqinlashganday bo‘ladi... Shahar bog‘lar va uzumzorlar bilan o‘ralgan, ular ba‘zi joylarda bir-ikki liga (5-10 km) masofagacha yastangan..."[4: 40-41-b]

Chindan ham bobomiz Temur barpo etgan bog'lar o'zining ko'rki, chiroyi, kattaligi va mahobati bilan kishini o'ziga rom etgan, o'ziga xos mevazor, bog'zor bo'lgan. Bundan tashqari bu yerda ko'shk, qasrlar bunyod etgan. Bu fikrlarimizni Ibn Arabshoh o'z asarida quyidagi jumlar bilan tasdiqlaydi: "Temur Samarqandda ko'pdan-ko'p bo'stonlar barpo qilib, baland va mustahkam qasrlar bunyod etdi. Ularning har qaysisi g'arobatli tartibda, ko'rkam va ajib suvratda edi. Bo'stonlar asosini mustahkam qilib, nodir mevali ko'chatlar bilan ularni bezadi"[2: 82-b].

Sohibqiron Amir Temur Samarqandda bunyod ettirgan bog'lar soni manbalarda turli xil keltirilgan. Ya'ni bir manbada berilgan bog'lar soni ikkinchi bir manbadan farq qiladi. Xususan, Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma"sida 6 ta bog'ni Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Davlatobod, Jahonnamoy (Qaroto'pa), Naqshi Jahon, Taxti Qoracha; Klavixo "Kundalik"larida jami 8 ta bog' haqida yozadi va shundan to'rttasining nomini keltiradi: Talisiya yoki Kalbet - Gulbog' (Bog'i Davlatobod), Dilikaxa - Bog'i Dilkusho, Bayginar - Bog'i Chinor, Bagino - Bog'i Nav;(Kastiliya elchilari to'rtta bog' Bog'i Dilkusho, Bog'i Bihisht, Bog'i Nav, Bog'i Chinorlarda rasmiy mehmon bo'lgan edilar); Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining □Boburnoma sida Samarqandda 9 ta bog'ni Bog'i Bihisht, Bog'i Buldu, Bog'i Dilkusho, Bog'i Maydon, Bog'i Nav, Bog'i Chinor, Bog'i Shimol, Bog'i Naqshi Jahon, bog'cha Ulug'bek bog'i; Hofizi Abru "Geografiya sida 8 ta bog'ni Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Bihisht, Bog'i Buldu, Bog'i amirzoda Shohrux, Bog'i Baland, Bog'i amirzoda Ulug'bek, Bog'i Maydon; Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma sida 11 ta bog'ni Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Davlatobod, (Bog'i Nav), Bog'i Qaroto'pa, Naqshi Jahon bog'i, Bog'i Taxti Qoracha, Bog'i Shimol, Bog'i Bihisht, Bog'i amirzoda Shohrux, Bog'i Baland; Ibn Arabshoh "Ajoyib al-mavdur"ida esa 6 ta bog'ni Bo'ston-u Eram, Ziynat ud-Dunyo, Jannat ul-Firdavs, Bo'ston ush-Shimol, Jannat ul-Ulyo, Taxti Qorachalarni yozib o'tadilar [3:166-b]. XIX asrda yashab o'tgan tarixchi Abu Tohirxo'ja Samarqandiy esa bog'larning soni 7 ta ekanligi yozib qoldiradi [1:19-b].

Demak, yuqoridagi manbalar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, Samarqand shahrida Amir Temur tomonidan yaratilgan bog'lar eng kami bilan 7 ta, ko'pi bilan esa 11 ta ekanligi ayon bo'lmoqd, ammo nomlari aksariyatida bir xil keltirilgan. Faqatgina Kastiliya(Ispaniya) elchisi Klavixo Yuqoridagi manbalarda berilgan bog'lar soni bir-biridan farq qilsada bog' nomlarini ispan talaffuzida yozgan bo'lsa, Ibn Arabshoh arabcha shaklda beradi, xolos.

Temur va temuriylar davri manbalarida, xususan Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"sida ushbu bog'larning qachon barpo etilganligi to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud. "Sharafuddin Ali Yazdiy □Zafarnoma da yozishicha, Amir Temur tomonidan

Samarqand atrofida yaratilgan bog'lardan dastlabkisi Bog'i Bihisht bo'lib, uning qurilishi 779 - (1377) yilga to'g'ri keladi [4:167-b]. Uni Temur Samarqandning g'arbida suyuqli xotini Tuman og'a (Xayrunniso)ga atab qurdirgan. Yozma manbalarda "Bog'i Jannat" nomi bilan ataladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, bog' o'rtasidagi atrofi xandaq bilan muhofaza etilgan sun'iy tepalik ustida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli saroy bo'lgan. Saroyga bir necha ko'tarma ko'priklar orqali kirilgan. Saroyning bir tarafida hayvonot bog'chasi ham bo'lgan. Qolgan bog'lar ham undan keyingi yillarda barpo etilgan va oxirgi bog' - Bog'i Nav Amir Temurning yetti yillik yurishi yillarida yaratilgan va shu sababdan Bog'i Nav (Yangi Bog') deb nom olgan.

Zahiriddin Bobur Boburnoma da Shayboniyxon bilan jangi oldidan bir necha kun Bog'i Navda turganini aytadi" [4:167-b].

Ali Yazdiy "Zafarnoma"da eng katta bog' sifatida "Bog'i Jahonnamo"ni ta'riflaydi. Uning yozishicha, bog' hududi benihoya katta bo'lib, shu bog'da yo'qolib qolgan ot 6 oyda topilgan ekan [9].

Amir Temur bog'larning geografik o'rniga, ayniqsa suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasiga katta e'tibor qaratgan. Aksariyat bog'lar Zarafshon, Suyob, Qorasuv daryolari tevarak-atroflarida joylashgan va tabiiyki, bu o'z-o'zidan bog'larning doimiy uzoq vaqt yashil, ko'rkam holatda turishiga ta'sir etgan. Bu bog'lar alohida hashamat va ko'rk beruvchi katta-katta ko'shk, qasrlar bilan uyg'un holatda barpo etilgan. Zahiriddin Bobur "Samarqandning sharqida ikki bog' solibtur, birikim yiroqroqtur, Bog'i Buldudur, yovuqrog'i Bog'i Dilkushodur. Andin Feruza darvozasigacha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yig'ochlari ekturubtur. Dilkushoda ham ulug' ko'shk soldurubtur..." deb Sohibqiron yaratgan bog'larni yozadi o'zining "Boburnoma"sida[6:82-b].

"Amir Temur zamonida Zarafshon vohasi juda go'zal bo'lgan. Sohibqiron faxr bilan aytar ekanki: "Mening bir bog'im borki, u Buxorodan Samarqandgachadir". Yana aytar ekanlarki: "Shoh bo'lsang-da, bog' yarat, gado bo'lsang-da bog' yarat, bir kuni mevasidan totarsan" [5:195-196 b].

Poytaxti atrofida Amir Temur tomonidan bunyod etilgan bog'lar xususida muarrix Abu Tohirxo'ja Samarqandiy shunday yozadi: "Samarqandda Amir Temur Ko'ragon soldirgan bog'larkim, Eram gulistoni rashk qilar darajada, yettita ekan:

Birinchisi – Bog'i Shimol – Samarqand shimolida. Devori Qiyomat ichida. Ikkinchisi – Bog'i Baland. Uchinchisi – Bog'i Behisht. To'rtinchisi – Bog'i Chinor. Bu ikki bog' shaharning kunchiqar tomonida. Beshinchisi – Bog'i Dilkusho bo'lib, Konigilning janub tomonida. Konigil Ko'hak daryosining yoqasida, Samarqandning eng go'zal va chiroylik yeridir. Oltinchisi – Bog'i Zog'on – Shovdor tumanining

shimol tomonida voqedir. Yettinchisi – Bog‘i Jahonnamo – Anhor tumanida bo‘lib, tog‘ etagiga yaqin yerda, Samarqandning janubida bunyod qilingandir”[1:19-b].

Sohibqiron Amir Temur bobomiz atrof-muhitni, jonli va jonsiz tabiatni e‘zozlash borasida benazir zot bo‘lgan. Cho‘l-u biyobonlarni obodonlashtirish, dehqonchilikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratgan. U «Temur tuzuklari» asarida: «Bir daraxt kessam, o‘rniga o‘n ikki daraxtni ekdim...», «...har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, hammomlar qurishni, musofir yo‘lovchilar uchun yo‘l ustida rabot bino qilishni, daryolar ustida ko‘priklar qurishni bu yurdim» deb yozadi [5:93-b]. Buni yuqoridagi yozuqlarimiz va tarix dalillari tasdiqlaydi. Amir Temur tomonidan barpo etilgan bu bog‘lar va ularda qurilgan ko‘shk, qasrlar mahobati, chiroyi bilan kishini lol qoldirgan. Misol uchun, Kastiliya elchisi sifatida Samarqanda kelgan Rui Gonzales de Klavixo bog‘larni hayrat bilan tomosha qilib, "dunyoda tengsiz go‘zalliklardan biri" deb ta‘riflaydi va o‘z kundaliklarida Samarqandning, uning bog‘larining go‘zalligini shavq, hayrat bilan yozib qoldiradi. Bir so‘z bilan aytganda, Sohibqiron bobomiz Amir Temur Samarqandni tabiatning go‘zal maskaniga aylantirdi. Dunyoning go‘zal shahriga aylantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Абу Тохирхўжа Самарқандий. Самария Т:1991. -81 б.
- 2.Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. II.Т.:Меҳнат,1992. -192 б.
3. Омонулла Бўриев. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси.Т.:Mumtoz so‘z, 2017.- 350 б.
4. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник. - С.138. Клавихонинг Самарқандга саёҳати. 2004.261 б.
5. Temur tuzuklari. Т:2018.183 б.
6. Хуршид Даврон «Соҳибқирон набираси» Шарқ. Тошкент. 2015.-382 б.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома 2002.-366 б.
8. Шарафуддин Али Яздий. "Зафарнома" (1972). 558-б.
9. Шарафуддин Али Яздий "Зафарнома" Шарқ. Тошкент. 1997.-381 б.
10. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Amir_Temur_bog%CA%BBlari